

ZAMONAVIY MIGRATSIYA JARAYONINI IDROK ETISHNING GENDER ASPEKTLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-596-598>

Baxtiyor Saidov

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)
tadqiqotchi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada migratsiya jarayonini shaxslar tomonidan idrok etilishini gender aspektlari ko'rsatilgan. Migratsiya jarayoniga ayollarni ta'siri va uning o'rganilishi tarixiga to'xtalib o'tilgan. Migratsiya jarayonini ayollar va erkaklar o'rtasida idrok qilinishi ko'rsatilgan. Xorijiy olimlar tomonidan migratsiya jarayonidagi gender munosabatlar o'rganilganligi asoslangan.

Kalit so'zlar: migratsiya, mehnat feminizatsiyasi, gender, ayollar, psixologiya, idrok.

Zamonaviy jamiyatda migratsiya oqimi davlatlarning ijtimoiy barqarorligiga va iqtisodiy farovonlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Migratsiya siyosatini aniqlash, hukumatlar uchun iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish imkoniyatlari uchun keng yo'l ochadi. Shuning uchun migratsiya jarayonini o'rganish ijtimoiy fanlar ustuvor yo'nalishiga aylanishi kerak.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, migrantlarning gender xususiyatlari, ijtimoiy maqomlar va rollar yangi sharoitga moslashish, ko'chib o'tishni tashkil qilish migratsiya jarayonini barcha jabhalariga ta'sir qiladi [1].

Uzoq vaqt davomida migratsiya jarayoni sotsiologiya fanlari doirasida o'rganilgan, lekin gender jihatlar aks etmagan. Chunki migratsiya jarayoni asosan erkaklar tomonidan amalga oshirilganligi uchun, faqat erkaklar o'rganilgan. Zamonaviy yo'nalishda gender xususiyatlar o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Asosan ayollarning gorizantal harakatchanligini tahlil qilishga qaratilgan. Buning asosiy sababi so'ngi o'n yillikda mehnatni feminizatsiya qilish tendensiyasi paydo bo'lgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda xalqaro migrantlarning umumiy sonida ayollarning ulushi 48,2% tashkil qilgan. 1990 yillardan to shu kungacha ushbu tendensiya barqaror saqlanib qolgan [2].

1960-1970 yillarda migratsiya sub'ektlari sifatida ko'pincha erkaklar tushunilgan, "migrant oilalar" deb oilali, turmush o'rtog'i va farzandlari bor erkak oilalariga nisbatan ishlatilgan. XX asrning 70-80 yillaridan boshlab, an'anaviy rollarning modellari o'zgarishi bilan migratsiya jarayonida ayollar rollari o'rganila boshladi. Juda ko'plab tadqiqotlar migratsiya jarayonida gender tafavutlarni ko'rsatdi. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi farqlar E.Lining tortishish va qochish nazariyasiga asoslangan oqilona tanlov bilan izohlanadi. Ushbu nazariyalar asosida ayollar migratsiyasining xususiyatlari turmush o'rtog' va ona sifatida qabul qilish bilan izohlanadi [3].

1980-1990-yillarda feministik nazariyalarning rivojlanishi, migratsiya jarayonida gender farqlarning kuzatilishi, ayollarni mehnat kuchini o'rganishga

e'tibor qaratila boshladi. Biologik jins va ijtimoiy jins o'rganilgan. Ijtimoiy jins o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi. Ushbu vaqtda migratsiyada gender maqom va munosabatlar tizimida sinf, irq, etnik va millat xususiyatlari kengroq o'rganila boshladi. Ayollar migratsiyasi oila boshlig'ining u bu joyga ko'chirilishi bilan bog'liq holda kuzatilgan [4].

Migratsiya bilan bog'liq tadqiqotlarda gender munosabatlar va institutlarga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Migratsiyani feminizatsiya qilish jarayonini o'rganishga zarurat tug'ilmoqda. Migratsiyani gender tushunchalaridagi muhim masalalaridan biri migratsiya jarayonida gender farqlarni shakllantirish mexanizmlarini yaratish.

Zamonaviy migratsiya nazariyasi migratsiyaning sub'ektlari va ular o'rtasidagi hususiyatlar, ular harakatlangan hududlarga ta'sirini o'rganishni ilgari surmoqda. Migratsiya jarayoni ayollar uchun juda ko'p mamlakatlarda jinsiy zo'ravonlik va ekspulsiya xavfini yuzaga keltiradi. Erkaklar uchun migratsiya ko'pincha yangi joyda yuqori yuqori daromadli ish topishni iloji yo'qligi sababli pastga qarab ijtimoiy tushish, ayollar uchun esa daromatni oshishi bilan bog'liq idrokni yuzaga keltiradi.

Rossiya olimlari tomonidan migratsiyaning gender jihatlari bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan, ammo ularda o'z mamlakatiga kelgan muhojirlarni o'rgangan. Tadqiqotda 15 yoshdan 75 yoshgacha bo'lgan rossiyaliklar ishtirok etib, ularni migrantlarga moslashish jarayonini sotsiologik tadqiq qilgan. Ularga quyidagi baholash ko'rsatkichlari berilgan:

- migrantlarga bo'lgan munosabat,
- migrantlarni borligini ijobiy va salbiy tomonlari,
- davlatning migratsiya siyosati haqida,
- yashash joyini o'zgartirish istagi,
- ko'chib o'tish istagi bo'yicha.

Tadqiqot natijasiga ko'ra, ruslarning 53% muhojirlarga befarq, 18,8 % ijobiy, 26,7 % salbiy munosabat bildirgan. Erkaklar ayollarga nisbatan migratsiya jarayoniga salbiy munosabatda ekanligi aniqlangan.

Respondentlarga “Siz muxojirlarga qanday munosabatdasiz?” degan savolga ayol va erkaklar quyidagicha javob bergan

1-jadval

	Erkaklar	Ayollar	Jami
Keskin salbiy	7,3	3,8	5,4
Ijobiydan ko'ra salbiyroq	24,5	23,8	24,1
Befarq	52,5	53,5	53,0
Salbiydan ko'ra ijobiy	8,4	10,2	9,4
Do'stona	7,3	8,6	8,0

Umumiy olganda migratsiya jarayoniga ruslarning munosabatlari salbiy bo'lgan. Migratsiyani salbiy tomonlari haqidagi savollarga jinoyatchilik va noqonuniy faoliyatni ortishi (27,9%), mahalliy aholiga zarur bo'lgan ish o'rinlarin

egallashi (14,9%), migrantlar mahalliy aholining ijtimoiy-madaniy sharoitlariga moslashishni istamasligi (13,6) asosiy omil sifatida ko‘rilgan. Migrantlarning salbiy oqibatlarini anglashida gender farqlar mavjudligi aniqlangan. Migratsiya bilan bog‘liq muammolar orasida ayollar migrantlarni ish bilan ta‘minlanishi haqida erkaklarga nisbatan ko‘proq tashvishlanishlari aniqlangan. Erkaklar esa ko‘proq migrantlarni integratsiyalashishni istamasligiga e‘tibor qaratilish aniqlangan.

Tadqiqotlardan shuni xulosa qilish kerakki, migratsiya jarayonida gender munosabatlar, ayollar mehnati kamaytirish, chet ellarga borib, uzoq yillar davomida yashash va asosiy moddiy ta‘minot uchun oilasidan uzoq bo‘lish, ayollik baxti, yoshlik suronlarini muxojir sifatida o‘tkazishni yo‘l qilishga qaratilgan yo‘llarni izlab topish uchun mamlakatimizdagi barcha tarmoq sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish va uni natijalarini amaliyotga joriy qilish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бритвина И.Б. Гендерная детерминация адаптации вынужденных мигрантов: социологический анализ. Автореф. дис. ... д-ра соц. наук. Екатеринбург, 2006.
2. Le Goff, M. (2016). Feminization of migration and trends in remittances. IZA World of Labor, 220 p.
3. International migrant stock 2015. United Nations. Department of Economic and Social Affairs. Available at: <http://www.un.org/en/development/desa/population/migration/data/estimates2/estimates15.shtml> (Accessed June, 2018).
4. А.Г. Морковкина, М.М. Максимова. Гендерные аспекты восприятия миграционных процессов в современном приграничном регионе России.